

## O'QUV TAHLILIDA TADQIQOT METODIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Kambarova Saodat Irkinovna,***

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrasida prof. v.b.,*

*pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*e-mail: [saodatkambarova73@gmail.com](mailto:saodatkambarova73@gmail.com), +998 95 180 24 73*

**ORCID: 0000-0002-9700-0685**

**Annotatsiya.** *Maqolada o'quvchilarning yozuvchi ijodini tadqiq etish, badiiy asar tahliliga yo'llash va kitob mutolaasiga qiziqitirishning samarali shakllari, xususan, yangi bilimlarni o'rganish, tizimlashitirish, umumlashtirish hamda adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirishda portfolio yaratishning ahamiyati haqida so'z boradi.*

*O'quvchilarning dunyoviy bilimlarni egallash, chet tillar yoki zamonaviy kasb-hunar sirlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortib borishi, shuningdek, globallashtirish jarayonlari mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilishni talab etadi. Lekin bu an'anaviy metodlardan tamomila voz kechish degani emas. Zero, har qanday ta'lim shakli yoki usuli zamirida, albatta, mustaqil tafakkurli Shaxs tarbiyasining samaradorligi nazarda tutiladi. Shu o'rinda, ehtiyoj sezilganda an'anaviy va noan'anaviy o'qitish metodlarining zarur elementlarini uyg'unlikda qo'llash o'quvchi intellektual imkoniyatlarini oshirishga zamin yaratishini ta'kidlash joiz.*

*So'z san'ati asoslarini egallash, muallif konsepsiyasi, asar g'oyasini chuqur idrok etish, sujet va kompozitsion vositalarni aniqlay bilish, matn mohiyatini ochishga yo'naltiradigan mustaqil ishlar bevosita adabiy ta'limning ijodiy o'qish, izlanish (evristik), reproduktiv yoki tadqiqot metodlari doirasida bajariladi. Borliq haqidagi ilk tasavvurlar bolada kichik maktab yoshidan boshlab turli janrdagi asarlarni o'qib-o'rganish jarayonida tadrijiy shakllantirib borilishi ko'zda tutilsa, adabiyotni o'rganish bosqichlarida xayolot va reallik o'rtasida mavjud tafovut yoki umumiylik, davrning dolzarb muammolari, obrazlar tizimining turfa qirralarini atroflicha tahlil qilish malakalarini kamol toptirish kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.*

**Kalit so'zlar:** *portfolio, mavzuviy portfolio, hujjatlar portfeli, sahifa, mutolaa, muammo, axloqiy muammo, ijtimoiy muammo, iqtisodiy muammo, ekologik muammo.*

## ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО МЕТОДА В АНАЛИЗЕ ОБУЧЕНИЯ

*Камбаровва Саодат Иркиневна, Ташкентский государственный университет  
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, доктор педагогических  
наук, и.о. профессора.*

*e-mail: [saodatkambarova73@gmail.com](mailto:saodatkambarova73@gmail.com), +998 95 180 24 73*

**ORCID: 0000-0002-9700-0685**

**Аннотация.** В статье представлены данные исследования творчества писателя, анализа художественного произведения и эффективные средства заинтересованности учащихся чтением книги, в частности приобретении новых знаний, систематизации, обобщении, а также об освоении литературно-теоретических понятий в создании портфолио.

Растущий интерес учащихся к получению знаний о мире, изучению иностранных языков, современным профессиям, а также процессы глобализации требуют организации занятий на основе передовых педагогических и информационных технологий. Но это не означает полного отказа от традиционных методов. Ведь в основе любой формы и метода обучения лежит эффективность воспитания самостоятельно мыслящей личности. В этой связи стоит отметить, что гармоничное использование необходимых элементов традиционных и нетрадиционных методов обучения, когда это необходимо, создаёт основу для повышения интеллектуального потенциала обучающегося.

Самостоятельная работа, направленная на овладение основами художественного слова, глубокое понимание авторского замысла и идеи произведения, выявление темы и композиционных средств, раскрытие сути текста, осуществляется непосредственно в рамках творческого чтения, исследовательского (эвристического), репродуктивного или исследовательского методов литературного образования. Предполагается, что первые представления о бытии постепенно формируются у ребенка с младшего школьного возраста в процессе чтения и изучения произведений разных жанров, при этом на этапах изучения литературы уделяется внимание таким вопросам, как различия или сходства фантастики и реальности, актуальные проблемы времени, а также развитию навыков всестороннего анализа различных аспектов системы образов.

**Ключевые слова:** портфолио, тематическое портфолио, портфель документов, страница, чтение, проблема, моральная проблема, социальная проблема, экономическая проблема, экологическая проблема.

## SPECIFIC FEATURES OF USING THE RESEARCH METHOD IN LEARNING ANALYSIS

*Kambarova Saodat Irkinovna, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate professor Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.*

*e-mail: [saodatkambarova73@gmail.com](mailto:saodatkambarova73@gmail.com), +998 95 180 24 73*

**ORCID: 0000-0002-9700-0685**

**Annotation.** The article presents data on research of the writer's creativity, analysis of the work of art, and effective means of interesting students in reading books, in particular, getting new knowledge, systematization, generalization, as well as learning literary and theoretical concepts in the creation of a portfolio.

*The growing interest of students in acquiring worldly knowledge, learning foreign languages, or modern professions, as well as globalization processes, require the organization of classes based on advanced pedagogical and information technologies. But this does not mean a complete rejection of traditional methods. After all, at the heart of any form or method of education is the effectiveness of educating an independent thinking person. In this regard, it is worth noting that the harmonious use of the necessary elements of traditional and non-traditional teaching methods, when necessary, creates the basis for increasing the intellectual potential of the student.*

*Independent work aimed at mastering the basics of word art, deeply understanding the author's concept and idea of the work, identifying the subject and compositional means, and revealing the essence of the text is carried out directly within the framework of creative reading, research (heuristic), reproductive, or research methods of literary education. It is assumed that the first ideas about existence are gradually formed in a child from primary school age through the process of reading and studying works of various genres, while in the stages of studying literature, attention is paid to issues such as the differences or similarities between fantasy and reality, current problems of the time, and the development of skills for a comprehensive analysis of various aspects of the system of images.*

**Key words:** *portfolio, thematic portfolio, portfolio of documents, page, reading, problem, moral problem, social problem, economic problem, environmental problem.*

## KIRISH

Ma'lumki, adabiy bilimlarni o'zlashtirish o'quvchini badiiy asar, adabiy-tanqidiy maqolalar mohiyatini yoritishga qaratilgan savollar tuzishga o'rgatish; tahlilga yo'naltiradigan topshiriqlar ishlab chiqish; mustaqil ishlar mavzusini belgilash; qahramonlar obrazi va voqea-hodisalarni o'zaro qiyoslab fikr yuritish; turli mavzularda suhbat, bahs-munozaralar uyushtirish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Garchi qayd etilgan ish usullari bugungi kunda yangilik sanalmasa ham adabiy ta'lim mazmunini axborot texnologiyalari vositasida noan'anaviy taqdimotlar o'tkazish, internet tizimida muloqotlar tashkillashtirishga doir dasturlar tuzish, kitob mutolaasiga qiziqish uyg'otuvchi portfoliolar yaratish vazifalarini kiritish bilan yanada boyitish mumkin. Xorijiy davlatlar o'qitish tizimida portfolio ta'lim maqsadlarini belgilashning muqobil shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ta'lim maqsadini belgilashga bunday yondashuv esa jamiyat taraqqiyotidagi reallik talablariga to'la javob berishi jihatidan samaralidir. Azaldan Sharqda o'z ustidagi ilmiy-ijodiy izlanishlarni izchil tizimlashtirish borasida boy tajribalar orttirilgan bo'lib, ular Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Muso Xorazmiy,

Ahmad Farg'oniy, az-Zamaxshariy kabi ulug' allomalarning nodir asarlari va olamshumul kashfiyotlari dunyo yuzini ko'rishiga dasturulamal vazifasini o'tagan, deyish mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda dunyo xalqlari orasida portfolio nomi bilan keng ommalashgan bayoz, devon tuzish, kitobat san'ati tarzidagi ajdodlarimizning boy ilmiy-ijodiy an'alarining zamonaviy shakllarini yaratish mexanizmlari I.Rajabova, S.Musayeva, O'.Tohirov, G.Boymirzayeva kabi tadqiqotchilar maqolalarida ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyati, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan yoritilganini kuzatish mumkin. Xususan, portfolio I.Rajabova tomonidan o'quv materialllarining o'zlashtirilganlik darajasini turli jihatdan aniqlash, ta'limni individuallashtirish va differensiyalash, o'quvchida yutuqqa intilish tuyg'usini shakllantirishning samarali yo'li sifatida tavsiflansa [4; 65-b.], kasb portfoliosiga xos muhim xususiyatlar O'.Tohirovning izlanishlarida alohida tahlilga tortilganini kuzatish mumkin [5; 18–20-b.].

O'quv portfoliosining shakl va mazmuniga doir individuallik S.Musayeva tomonidan atroflicha o'rganilgan [3; 4–9-b.]. Tadqiqotchi G.Boymirzayeva to'g'ri tasniflaganidek, "portfolio foydalanish maqsadi va vazifasi, materiallar xarakteri va tuzilmasi, yaratilish jarayoni, axborotlarni qayta ishlash va taqdimot qilish, o'quv predmetlari kesimida, faoliyat subyekti bo'yicha fan va ishlab chiqarishning turli sohalariga keng tatbiq etiladi" [2; 24–25-b.].

Portfolio – hujjatlar yoki muharrirlik portfeli, yutuqlar jamg'armasi, o'z-o'zini baholash usuli sifatida muayyan soha mutaxassisi imkoniyatlarini belgilash, ish faoliyatini baholash, kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish, qobiliyatlarini namoyon etish vositasidir. Shaxsiy jamlanma yoki hisobot uchun tayyorlanadigan portfolioning (qog'oz yoki elektron versiyadagi) shaklan va mazmunan rang-barang, mukammal tarzda yaratilishi muallifning dunyoqarashi va salohiyatiga har jihatdan bog'liq. Tabiiyki, elektron hujjatlar portfeli tarkibini mavzuga oid audio, videoyozuvlar, fotosurat yoki filmlardan lavhalar bilan yanada kengaytirish manbalarning originalligi, xilma-xilligi va ishonchligiga xizmat qiladi.

Bo'lim va sahifalarni fayllar papkasi tarzida nomlash, hujjat yoki materiallar tanlanmalarini alohida fayllarga kiritish, dinamikani belgilash uchun natijalarni ma'lum ketma-ketlikda qayd etish portfolio yaratishning optimal variantidir.

Portfolio tuzishning yagona standarti yoki qat'iy talabi o'rnatilmagan. Faqat tarkiban shakllantirishning quyidagi metodikasini tavsiya qilish mumkin:

- ish mazmuniga oid yo'nalishlarni belgilash va loyihalashtirish;
- maqsad va vazifalarni rejalashtirish;
- dolzarb va muhim mavzularni tanlash;
- materiallarni uzviylik va izchillikda joylashtirish;
- izlanishlarni ilmiy asoslash va muayyan shaklda rasmiylashtirish;
- qo'shimcha adabiyotlar va iqtiboslarga oid ilovalar berish;
- ijro monitoringi o'tkazish.

Hujjatlar jamlanmasini ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'z faoliyatida birdek joriy etishi muayyan samaradorlikni ta'minlaydi.

Ta'lim beruvchi yig'ma jildi ko'rik-tanlovlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, metodbirlashma yig'ilishlariga oid reja, dastur, loyiha va ishlanmalar, e'lon qilingan ilmiy maqolalar; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ko'rgazma va didaktik materiallar; kuzatilgan tadbirlarga bildirilgan taklif va tavsiyalar, samaradorlik ko'rsatkichi hamda kelgusidagi vazifalar mazmunidan iborat bo'lishi mumkin.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

O'quvchilarda o'quv taqdqiqotchiligi ko'nikmalarini shakllantirishda portfolio metodiga murojaat qilish, asosan, mustaqil o'qish, ijodiy ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, mutolaa qilingan badiiy asarlar yuzasidan xulosalarini ifodalash imkonini beradi. Hujjatlar portfelida o'quvchining tafakkur tarzi, ijodiy faolligi hamda vazifaga munosabati aks etadi. O'quvchining o'zi haqidagi ma'lumotlardan tashqari olib borilgan tadqiqotchilik ishlari mazmuni va xulosalari hujjatlar yig'ma jildining asosini tashkil etadi.

Portfolio yaratish ma'lum vaqt talab qiladigan murakkab jarayon bo'lib, o'quvchini o'z yutuqlari, qiziqishlari, istiqboldagi rejaları haqida hikoya qilishga yo'naltiradi. Portfolioning bir qancha turlari bo'lib, mavzuviy portfolio yaratish o'quvchining tadqiqotchilik ko'nikmasini shakllantirishda asqotishi, tabiiydir.

Mustaqil o'qishga oid hujjatlar portfeli quyi sinflardan boshlab yuritiladigan "Kitobxon kundaligi"ning zamonaviy va takomillashgan ko'rinishidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mavzuviy portfolio quyidagi bo'lim va sahifalardan mantiqan shakllantirilishi maqsadga muvofiq:

I. **"E'tirof"** nomli ilk bo'lim sahifalarida o'zbek, qardosh va jahon xalqlari adiblarining umr yo'li, faoliyati, shaxsiyati va hayotiy maslagi haqidagi mulohazalar yoritilishi mumkin.

II. Asarning to'liq yoki ma'lum bo'limi uslubi, til xususiyatlari, obrazlar tizimining xarakter xususiyatlarini o'rganish natijalari **"Munosabat"** bo'limida aks etishi rejalashtiriladi.

III. **"Nuqtayi nazar"** bo'limi adabiy materialga oid insho, taassurot, taqriz, maqola va ma'ruzalar shaklidagi ijodiy ishlarni o'z ichiga oladi.

IV. So'nggi nashrlar bilan bog'liq ma'lumotlar **"Yangiliklar"** bo'limidan o'rin egallashi ko'zda tutiladi.

V. **"Mavzu haqidagi o'ylarim"**. Ayonki, psixologiya fani yosh xususiyatlari yoki bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasiga tayanib ish ko'rsa, metodika ilmi o'qituvchidan o'quvchi e'tiborini ma'lum yo'nalishga qaratish, faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish, mavzuga oid tadqiqotlar olib borish, shaxsiy nuqtayi nazarlarini aniq dalillar bilan isbotlash yuzasidan tegishli yo'l-yo'riqlar ko'rsatishni taqozo etadi.

Mazkur sahifa o'quvchini asarning g'oyaviy-badiiy maqsadi, obrazning umumlashmaligi, individualligi, estetik ta'sirchanligi, shuningdek, muallif uslubi haqida mushohada yuritish ko'nikmasini rivojlantirish borasida ma'lum qonuniyatga bo'ysunadi. Jumladan, badiiy asardagi lirizm, psixologizm va chuqur drammatizm, xalqchilik, milliylik va umuminsoniylik, o'tkir sujet, konfliktlar yoki takrorlanmas xarakterlar haqidagi qarashlar bayoniga oid talabning qo'yilishi muayyan adabiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishga bog'liq bo'lib, ta'limda ilmiylikni yoqlaydi.

Adabiy ta'limda biror shoir yoki yozuvchi umr bayoni yuzasidan portfolio yaratish ma'lum maqsad va yo'nalishga asoslanadi. Masalan, taniqli yozuvchi Ch.Aytmatov ijodiga doir sahifani shakllantirishda quyidagilar nazarda tutilishi e'tiborga molik:

- a) muallifning folklor an'analari va realistik proza imkoniyatlarini qo'llash mahorati;
- b) qadimgi miflar va mifologik obrazlarni qayta ishlashdagi novatorligi;
- d) rus va Yevropa nasrining ilg'or tajribalarini uyg'unlashtirish asosida o'ziga xos maktab yaratishi;
- e) asarlari tilining o'ziga xosligi va hokazo.

Ta'kidlash o'rinliki, Ch.Aytmatovning umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinfi uchun mustaqil o'qishga tavsiya qilish o'rinli sanalgan "Tog'lar qulayotgan zamon" ("Abadiy qalliq") romani [6; 10-b.] bugungi ziddiyatli, shiddat bilan kechayotgan global asrda bashariyatga tahdid solayotgan xavf-xatarlar, mafkuraviy bo'shliqlar, ma'naviy qashshoqlik yoki mumtoz an'anaviy madaniyatni tubanlik sari yetaklayotgan omillar mohiyati xolisona yoritilgani bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shubhasizki, roman "Abadiy qalliq" afsonasi sujetiga qurilgan real hayotning badiiy in'ikosi bo'lib, qalblarni poklashi, ma'naviyatni yuksaltirishi, dunyoni yovuz kuchlardan qutqarishga da'vat etishi nuqtayi nazaridan ham qimmatlidir.

Adibning murakkab hilqat qismati bilan bog'liq sinoatlarga falsafiy yondashish va ijodiy talqin etish mahorati jahon adabiyotida noyob hodisa sifatida baholanadi. Mazkur romanda ham muallifning ifoda uslubidagi an'anaga sodiqligi azaliy va zamonaviy qadriyatlar ulug'lanishi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning barobarida, yangilanayotgan davr bilan afsonalar sujetining uyg'unligi, inson va tabiat o'rtasida darz ketgan mutanosiblik, kelajak uchun mas'ullik hissi, jonivorlar obrazining insonlar kabi xarakter darajasida tasvirlanishi yozuvchining umumjahon miqyosidagi tafakkur sohibi ekanligiga dalolatdir.

**"Asar haqidagi o'ylar"** talqinida:

- a) sobiq tuzumning qayta qurish siyosati oqibatlari;
- b) yosh mustaqil davlatning bozor iqtisodiyoti davridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli;
- d) jamiyatning ma'naviy tanazzulga yuz tutishi, "ommaviy madaniyat"ning ildiz otish sabablari;
- e) turfa obrazlar xarakteridagi evrilishlar;
- f) abadiy va o'lmas tuyg'ular tarannumi bilan bog'liq masalalarga ahamiyat qaratish muhim hisoblanadi.

Sahifada quyidagi muammolarga oid xulosalar aks etishi ko'zda tutiladi:

1. Axloqiy muammolar: jurnalist Arsen Samanchin va opera solistkasi Aydana Samarovalarning omadsiz yakun topgan muhabbatlari tarixi.
2. Ijtimoiy muammolar: insoniyatni bir-biriga qarshi qo'yishga urinishlar (Arsenni ov rejasini barbod etishga undagan kuch; yigitni asossiz ayblash, hatto dafn etishga ham loyiq ko'rilmalik sabablari).
3. Iqtisodiy muammolar: odamlar mehnatining moddiy jihatdan munosib baholanmasligi (ishchilarning oylik maoshi hatto bolalariga maktabga borish uchun poyabzal olib berishga ham yetmasligi, tomorqalarda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish o'zini oqlamasligi).
4. Ekologik muammolar: "Qizil kitob"ga kiritilgan, O'rta Osiyoning ayrim tog'laridagina qolgan qor barslari biznesining yo'lga qo'yilishi.
5. Siyosiy muammolar: chet ellik sayyohlar – arab oligarxlarini garovga olishga rejalashtirilgan terakt oqibatlarini.

Hayotda taqdiri azalning qachon va qay tarzda voqe bo'lishiga o'ta jumboqli hodisa sifatida qaraladi. Shu sababdan "peshonasiga yozilgan", degan iboraning qo'llanishi bejiz emas. Binobarin, inson fazoni zabt etadimi yoki ummon osti kengliklarini kashf qiladimi, qat'iy nazar, barcha yaratilgan kabi ilohiy kuchlar qarshisida ojiz qoladi. Bu fikrlar bevosita asar qahramonlari hayotiga ham daxldor.

Romanda inson bolasi va yirtqich qor barsi boshiga tushgan ko'rgiliklar misolida inson sha'nining toptalishi, poymol qilingan tuyg'ular va qadr-qiyamat qiyofasi chiziladi.

Adabiy asarni o'rganishda qiyoslash metodi imkoniyatlariga tayanish orqali voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borish, asosiy e'tiborni muammoli vaziyatlarni aniqlay bilish va yechimini topishga qaratish, fikr-mulohazalarini boshqalarniki bilan taqqoslash kabi jiddiy va mas'uliyat talab vazifalar hal qilinadi. Yuqoridagilar nazarda tutilsa, o'quvchi asar sujetini oziqlantirishga turtki bo'lgan "Abadiy qallic" afsonasi qahramonlari umr sahifalarini sinchkovlik bilan varaqlab, yozuvchi maqsadini anglab yetishi va insoniy munosabatlarni tahlil qilishi o'ta muhimdir. Bu esa roman muqaddimasidayoq bashorat qilingan quyidagi bitiklarga diqqat qilishdan boshlanadi:

“Bu gal ham shunday bo‘ldi. Ha, bu ham taqdir edi – inson aqli bovar qilmaydigan, u tugul, aytish mumkinki, Ollohning nazaridan tashqari bu voqeani kim ham xayoliga keltiribdi deysiz.

Shunday bo‘lsa-da aql yetmaydigan narsani payqab olishga urinib, qissamiz qahramonlari – ikki mavjudotni qaysidir manoda qismatlari o‘zaro bog‘liq, samoviy jihatdan qardosh deb taxmin qilsa bo‘lar, ular o‘sha taqdir taqozosi ila bir burjning yulduzlari ostida dunyoga kelgan bo‘lsalar ne ajab. Axir – shunday bo‘lishi mumkin-ku!” [1; 16-b.].

E’tibor qilinsa, to‘dasidan quvilib, yolg‘izlikka mahkum bo‘lgan jonzot singari san’atni shou-biznesga aylantirgan korchalonlarning milliy qadriyatlarini tahqirlashlariga qarshi chiqqan jurnalistni ruhan azoblashlari, atroflarida o‘ralashmaslik uchun oyoq osti qilishlari har ikkala obraz taqdiridagi mushtarak jihatlaridir.

Erkin ijodkor Arsen g‘ururi toptalishiga chiday olmay, xuddi Jaabars ilvasinlar serob Uzangilash tog‘laridagi qorli dovonlarni makon tutganidek, shahar muhitini tark etib, erkinlikni ixtiyor etadi. Lekin baxtga qarshi mavjud tuzumdan norozi kimsalar changalida ilojsiz qoladi.

Tik qoyalalar, abadiy muzliklarda sarson kezib, xotirjamlik topmagan bars bilan buzg‘unchilikka qo‘l urgan qishloqdoshlari talabiga bo‘ysunmagan yigit aynan bir joy va bir makonda dahshatli o‘lim topishi taqdir yoziqlari muqarrarligiga ishoradir, balki. Izlanishlar yakunida kitobxon, albatta, “Tog‘lar qulayotgan zamon” romani bejiz “taqdirlar haqidagi qissa” [1; 6-b.] deya e’tirof etilganiga shubha qilmaydi.

## XULOSA

Demak, yozuvchi ijodxonasi yoki adabiy material tadqiqiga oid mavzuviy portfolio yaratish badiiylik, obrazlilik, obraz, yozuvchi mahorati, g‘oyaviylik haqida muayyan tushuncha hosil qilish hamda hayotning badiiy umumlashma qiyofasini chuqur idrok etishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tegishli o‘quv predmeti, kitob mutolaasi, ma’naviy ehtiyojlari yoki shaxsiy qiziqishlari doirasida portfolio yaratish usuli ta’lim oluvchida maqsad sari intilish; ilk kasbiy ko‘nikmalarni kamol toptirish; belgilangan davr oralig‘ida muayyan izlanishlarni tizimli amalga oshirish va samaradorlikka

erishish; ijodiy faoliyatdagi o'sish yoki pasayish darajasini aniqlash; o'z mehnatidan zavqlanish va yaratuvchanlikka ruhlantirish; kelgusidagi vazifalarni rejalashtirish, bir so'z bilan aytganda, intellektual imkoniyatlarni to'la-to'kis namoyon etishga zarur sharoit yaratadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айтматов Ч. Тоғлар қулаётган замон. (Абадий қаллиқ). Саидов А. Афсонавий ёзувчи ва унинг охири романи ҳақида. –Тошкент: VEKTOR-PRESS, 2009. – 252 б.
2. Boymirzayeva G. Portfoliya texnologiyasi va uning tasnifi // Kasbiy fanlar metodikasi. – Тошкент, 2016. – № 6. – В. 24–25.
3. Мусаева С. Ўқув портфолиосининг тузилиши ва мазмуни // Kasb-hunar ta'limi. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 4–9.
4. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиш. – Тошкент: TAMADDUN, 2010. – 112 б.
5. Тоҳиров Ў. Касб портфолиоси у қандай шакллантирилади? // Kasbiy fanlar metodikasi. – Тошкент, 2013. – № 4. – Б. 18–20.
6. Xalq ta'limi tizimidagi 1–9-sinf o'quvchilariga mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati / Ma'rifat. – Toshkent, 2016, 6-fevral. – 10-b.